

# Andijon davlat tibbiyot institutida «Shukronalik» tadbirlari

Qishki ta'til yakunlanib Andijon davlat tibbiyot institutida darslar davom ettirilmoqda. An'anaga ko'ra hafta «Shukronalik» tadbiri bilan boshlandi. Institutt asosiy binosida patologik fiziologiya kafedrasida tomonidan o'tkazilgan «Shukronalik» tadbirda kafedra mudiri Sh.X.Hamroqulov barcha talabalarni Yangi yil bilan yana bir bor tabrikladi, pandemiya sharoitida karantin qoidalariga amal qilish zarurligi to'g'risida ma'ruza qildi.



«Shukronalik» tadbiri institut Klinikasi binosida Nevrologiya kafedrasida tomonidan o'tkazildi.

Tadbirni Davolash fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Ulug'bek Karimov ochib, tinch va osoyishtalikda o'tayotgan har bir kunimizga, sog'-salomat uyg'onganimizga shukronalik qilishimiz kerakligini ta'kidladi.



Nevrologiya kafedrasini o'quv ishlari bo'yicha mas'uli O.B.Qo'chqorova va kafedra assistenti N.I.Raxmatullayeva yurtimiz va xorij yangiliklari bilan tanishtirdilar, "Ma'naviyatli talaba qanday bo'lishi kerak?" mavzusida ma'ruza qildilar.



Tadbir yakunida Davolash fakulteti dekani v.b L.M.Aliyev talabalarga institut ichki tartib qoidalari haqida, darslarga muntazam qatnashishlik haqida gapirib ularga omad va zafarlar tiladi.



Institutning 2-o'quv-laboratoriya binosida O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini tomonidan o'tkazilgan "Shukronalik" tadbirlari ham ana shu mavzularga bag'ishlandi.



**ADTI axborot xizmati**